
29 ta ko'p qavatli uylar mukammal va joriy ta'mirlanmoqda

Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasi aholi kayfiyatiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladigan o'ta mas'uliyatli sohalardan biri hisoblanadi. Shuni e'tiborga olgan holda, Farg'ona viloyatida ko'p qavatli uylarda istiqomat qiluvchi aholi farovonligini ta'minlash, fuqarolarga sifatli kommunal xizmat ko'rsatish yo'lida izchil sa'y-harakatlar amalga oshirilmoqda.

Hususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-408-sonli qaroriga asosan, Farg'ona shahar Istiqbol mahallasi hududida joylashgan 29 ta ko'p qavatli uyning fasad va tom qismlarini ta'mirlash, 67 ta temir eshik va kodli qulflar o'rnatish, elektr taqsimlovchi shitlarni ta'mirlash hamda 21 ta uyning framuga oynalarini zamonaviy plastik romlarga almashtirish ishlari amalga oshirilmoqda. Mazkur ishlarni amalga oshirish uchun respublika byudjetidan 1,4 mlrd. so'm mablag' ajratilgan.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-13 20:30:14